

IX Xalqaro sanoat yarmarkasi yakunlari bo'yicha 100 mlrd. so'mlikdan ortiq shartnomalar imzolandi



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 13 martdagi "2015 yilda Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasini tashkillashtirish hamda o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan joriy yilning 26 oktyabridan 5 noyabrgaqadar bo'lib o'tgan mazkur tadbirda "O'zavtoyol" AK tizimidagi korxonalar va tashkilotlar ham ishtirok etishdi.

Yarmarka doirasida "O'zavtoyol" AK tomonidan o'tkazilgan taqdimot marosimida kompaniya tarkibidagi korxonalarning ishlab chiqarish salohiyati, shuningdek, ishlab chiqariladigan mahsulotlar ham ko'rsatiladigan xizmatlarning istiqbollari namoyish etildi.



IX Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsion birjasi yakunlariga ko'ra kompaniya tizimidagi tashkilotlar hamda O'zbekistondagi ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida mazkur korxonalarning yo'l qurilishi va saqlashda ishlatiladigan mahsulot va texnikalarini sotib olish bo'yicha 100 milliard so'mlikdan ziyod, shuningdek, "O'zavtoyol" tizimidagi korxonalar ishlab chiqargan mahsulotlarni sotish bo'yicha qiymati 12 milliard so'mdan

ortiq shartnomalar imzolandi. Bu o'tgan yilda imzolangan shartnomalarga nisbatan 112,4 foizni tashkil qiladi.

Kooperatsion birja doirasida sotib olinadigan, Respublikamizda ishlab chiqarilgan uskunalar, mashina mexanizmlar hamda materiallar - bir tomondan kompaniya tizimidagi korxonalarining moddiy bazasini mustahkamlashga xizmat qilsa, boshqa tomondan lozim bo'lgan bozor infratuzilmasini yaratib, mamlakatimizdagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlaro'rtasidagi uzoq muddatli o'zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlashga hissaqo'shadi.

"O'zavtoyol" AK matbuot xizmati